



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 10-dekabr

696-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyat hokimining 2024-yil 4-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Respublikada issiqxona xo'jaliklari faoliyatini sog'lomlashtirish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2024-yil 21-noyabrda 777-son qarori ijrosi haqida"gi 581-6-0-Q/24-sonli qarori to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Respublikada issiqxona xo'jaliklari faoliyatini sog'lomlashtirish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2024-yil 21-noyabrda 777-son hamda Namangan viloyat hokimining 2024-yil 4-dekabrda 581-6-0-Q/24-sonli qarorlari ijrosini ta'minlash, shuningdek, viloyatda issiqxona xo'jaliklariga qulay shart-sharoitlar yaratish orqali ularning faoliyatini sog'lomlashtirish va qo'llab-quvvatlash maqsadida "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 211-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyat hokimining 2024-yil 4-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Respublikada issiqxona xo'jaliklari faoliyatini sog'lomlashtirish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2024-yil 21-noyabrda 777-son qarori ijrosi haqida"gi 581-6-0-Q/24-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 21-noyabrda 777-sonli qarori bilan:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Issiqxona xo'jaliklari faoliyatini rag'batlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2024-yil 26-sentabrda PQ-339-son qarori qabul qilinganligi;

Tijorat banklarining ishchi guruhi tavsiyalaridan kelib chiqib, dastlab Xorazm viloyatida, keyinchalik Xorazm viloyati tajribasi asosida respublikaning boshqa hududlarida issiqxona xo'jaliklarini yanada qo'llab-quvvatlash bo'yicha;

a) faoliyati qayta tashkil etiladigan issiqxona xo'jaliklarini boshqarish maqsadida tijorat banklari tomonidan investitsiya kompaniyalarini tashkil qilishi. Bunda ayrim issiqxona majmualarini respublikaning boshqa hududlariga ko'chirishi;

b) tijorat banklari tomonidan har bir issiqxona xo'jaligiga individual yondashgan holda, quyidagilarni amalga oshirishga ruxsat berilishi:

issiqxona majmualarini salohiyatli investorlarga, shu jumladan, respublikaning boshqa hududlariga ko'chirib o'tkazish orqali sotishi; issiqxona xo'jaligi tomonidan qo'shimcha garov ta'minotini taqdim etish hisobiga issiqxona majmualarini ta'mirlash va aylanma mablag'larni to'ldirish uchun kredit resurslarini ajratilishi;

. tijorat banklari tomonidan xorijiy valutadagi kreditlarni ularning kredit siyosatlarini doirasida milliy valutada qayta rasmiylashtirishni ko'rib chiqishi;

c) issiqxona xo‘jaliklarida yetishtiriladigan qishloq xo‘jaligi ekinlarining hosildorligini oshirish maqsadida tijorat banklari tomonidan issiqxona xo‘jaliklari uchun yuqori malakali agronomlarni jalb qilinishi kabi takliflariga rozilik berilganligi;

Bunda Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Agrosanoatni rivojlantirish agentligi tijorat banklariga yuqori malakali agronomlarni jalb qilishda amaliy yordam ko‘rsatishi;

Respublikada issiqxona xo‘jaliklarini to‘liq quvvatda va samarali faoliyat yuritishini ta‘minlash, mahsulotlar tannarxini pasaytirish, yuqori qiymatga ega mahsulotlar yetishtirishni yo‘lga qo‘yish hamda ularni samarali sotish mexanizmini yaratish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi ma‘lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

3. Viloyat Qishloq xo‘jaligi bo‘limi (A.Xakimov), Agrosanoatni rivojlantirish agentligi tuman ofisi (X.G‘ulomov), tijorat banklari hamda tegishli tashkilotlar bilan birgalikda ikki oy muddatda Xorazm viloyati misolida tuman hududlaridagi issiqxona xo‘jaliklari joylashgan yer uchastkalarini xatlovdan o‘tkazgan holda:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer uchastkalarini ijaraga berish tartibini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 18-yanvardagi PF-15-son Farmoni ijrosi doirasida huquqni tasdiqlovchi hujjatlari to‘liq bo‘lmagan, hujjatdagi va amaldagi maydoni bir biridan farq qiladigan, doimiy foydalanish huquqi bilan ajratilgan, shu sabablarga ko‘ra yer uchastkasiga bo‘lgan ijara huquqi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilmagan issiqxonalar joylashgan yer maydonlari xalq deputatlari tuman Kengashi sessiyalarida ko‘rib chiqilib va tegishli qarorlar qabul qilishni tashkil etsin;

tijorat banklariga o‘tkaziladigan issiqxona majmualarining yer maydonlarini tuman (shahar) hokimi va yerdan foydalanuvchi o‘rtasida yer ijarasi shartnomasining qolgan davriga mutanosib ravishda tuzish masalasida tijorat banklari tomonidan mustaqil ravishda qaror qabul qilinishni ta‘minlasin.

4. Viloyat Qishloq xo‘jaligi bo‘limi (A.Xakimov), Agrosanoatni rivojlantirish agentligi tuman ofisi (X.G‘ulomov), tijorat banklari hamda tegishli tashkilotlar bilan birgalikda, bir oy muddatda Xorazm viloyati tajribasi bo‘yicha issiqxona xo‘jaliklari faoliyatini o‘rganib chiqib, ularni qo‘llab-quvvatlash va moliyaviy sog‘lomlashtirish yuzasidan tezkor choralarni ko‘rsin va amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida viloyat hokimligiga axborot kiritsin.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari B.Muydinov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov